

„QUTADG‘U BILIG“ ASARIDA IJTIMOIY AXLOQ MASALALARI

*Andijon davlat pedagogika instituti Filologiya fakulteti o'zbek tili va
adabiyoti kafedrasи stajyor o'qituvchisi
Karimova Dilobad Halimovna*

*Andijon davlat pedagogika instituti Filologiya fakulteti o'zbek tili va
adabiyoti yo'nalishi 1-kurs 102-guruh talabasi
To'lanova Zulfiyaxon G'iyo'siddin qizi,*

*101-guruh talabasi
Ahmadjonova Nafisa Akmaljon qizi*

Annotasiya: Mazkur maqolada Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asarida ijtimoiy axloq masalalari keng yoritilgan. Undaadolat, aql, davlat, qanoat kabi tushunchalar ramziy qahramonlar orqali ifodalanadi. Asarda ilm-fan, axloqiy tarbiya, shaxsiy kamolot va davlat boshqaruvi masalalari chuqur tahlil etilib, yosh avlodni ma'naviy yetuklikka yetaklovchi g'oyalar ilgari suriladi.

Kalit so'zlar: Qutadg'u bilig, Yusuf Xos Hojib, axloq,adolat, aql, davlat, tarbiya, komil inson.

**СОЦИАЛЬНО-НРАВСТВЕННЫЕ ВОПРОСЫ В
ПРОИЗВЕДЕНИИ «КУТАДГУ БИЛИГ»**

*Стажёр-преподаватель кафедры узбекского языка и литературы
филологического факультета Андижанского государственного
педагогического института
Каримова Дилобад Халимовна*

Студентка 1 курса 102-группы факультета филологии Андижанского государственного педагогического института направления узбекского языка и литературы
Тулanova Зулфияхон Гиясиддин кызы,

Студентка 101-группы
Ахмаджанова Нафиса Акмалжон кызы

Аннотация: В данной статье подробно рассматриваются вопросы социальной этики в произведении Юсуфа Хос Ходжисба «Кутадгу билиг». Через символовических героев раскрываются такие понятия, как справедливость, разум, государственность и довольство. Произведение содержит глубокий анализ нравственного воспитания, личного совершенствования и управления государством, направленных на духовное развитие молодёжи.

Ключевое слово: Кутадгу билиг, Юсуф Хос Ходжисб, этика, справедливость, разум, государство, воспитание, совершенный человек.

SOCIAL AND ETHICAL ISSUES IN THE WORK “QUTADGHU BILIG”

*Intern teacher of the Department of Uzbek Language and Literature,
Faculty of Philology, Andijan State Pedagogical Institute,
Karimova Dilobad Halimovna*

*1st-year student of group 102, Faculty of Philology, Andijan State
Pedagogical Institute, Uzbek Language and Literature Department –
Tulanova Zulfiya Khon G‘iyosiddin qizi,*

Student of group 101 – Ahmadjonova Nafisa Akmaljon qizi

Abstract: This article explores the issues of social ethics presented in Yusuf Khass Hajib's work *Kutadgu Bilig*. Concepts such as justice, intellect, statehood, and contentment are represented through symbolic characters. The work provides in-depth insights into moral education, personal development, and governance, aiming to guide youth towards spiritual maturity.

Key words: *Kutadgu Bilig*, Yusuf Khass Hajib, ethics, justice, intellect, state, education, perfect human.

Qutadg'u bilig" – turkiy xalqlar islomni qabul qilganlaridan so'ng yaratilgan ilk adabiy asar hisoblanadi. Turkiy yozma adabiyotining bebahoh asarlaridan biri bo'lgan Qutadg'u bilig asari buyuk mutaffakir Yusuf Xos Hojib tomonidan 462-yilda yozib tugallangan (grigorian kalendar bo'yicha: 1069/1070). "Qutadg'u bilig" turkiy qoraxoniylar tilida "Saodatga eltuvchi bilim" degan ma'noni anglatadi. Qutadg'u bilig – nafaqat adabiy asar, balki u siyosiy qomus hamdir. U davlatni qanday boshqarish kerakligi masalasiga qaratilgan. Qutadg'u bilig turkiy xalqlar davlat boshqaruvini juda chuqur anglash va davlatni oqilona va yaxshi boshqarish saodat manbasi ekanligiga ishonch hosil qilganliklarini ko'rsatadi. Shubhasiz, olimlarning shunday buyuk asar to'g'risida biror yangilik aytishlari uchun har doim sabab topiladi[6]. "Qutadg'u Bilig" nafaqat bir asar, balki saodatga olib boruvchi bilim manbai sifatida abadiy qadrini saqlaydi. U "6520 baytdan iborat, masnaviy (ya'ni aruzning "mutaqoribi musammani mahzuf") vaznida yozilgan[1]". "Qutadg'u bilig" asari Yusuf Xos Hojib haqida ma'lumot beruvchi yagona asar sifatida ko'rildi. Asardan xulosa qilishimiz mumkinki, o'z davrining zarur, foydali bilimlarini mukammal bilgan Yusuf Xos Hojib o'zi yashayotgan vaqtning madaniy, ma'naviy merosini avlodlarga qoldirish uchun harakat qilgan. Asar turkiy adabiyotni yorqin kelajak taraqqiyoti sari tashlangan ilk qadamlari bo'lib, ulkan va islomiy turkiy adabiyotni boshlanishiga yordam bergan.¹ Asar Qoshg'arda nihoyasiga yetdi va o'zining nodir san'ati bilan

¹ "Экономика и социум" №10(77) 2020 www.iupr.ru.

ajralib turib, davrning madaniyati, ma'rifati, ilm-fan, urf-odat va an'analarini o'z ichiga oladi.

Mamlakatning daxlsizligi, uning ravnaqi faqat budun bilandir. Xalqning qanday bo'lishi mamlakat boshlig'iغا to'la bog'liqdir. «Qutadg'u bilig»да mamlakat boshlig'i – hukmdor «elig» yoki «bek» deb yuritiladi. Alovida ta'kidlash joizki, qadimgi turklarda vatan tushunchasi shu vatanga mansub xalq bilan birga tasavvur etilgan. Ushbu tushuncha «el» so'zi bilan ifodalanadi. Bu so'z faqat xalqni emas, balki mamlakat, o'lka, davlat (sultanat), yurt tushunchalarini ham ifodalaydi. Uning «kun» so'zi bilan birga kelishi «el-u xalq», «yurt», «mamlakat», «vatan» tushunchalariga teng keladi. Asarda to'rtta yetakchi qahramon bor: Kuntug'di – elig (hukmdor) – Adolat timsoli. Oyto'ldi – vazir – Davlat timsoli. O'gdulmish – vazirning o'g'li (otasining vafotidan keyin Vazir) – Aql timsoli. O'zg'urmish – Oyto'ldining uzoq qarindoshi, zohid – Qanoat (ofiyat) timsoli. Ularning har biri ramziy tarzdaadolat, davlat, aql va ofiyat (qanoat)ni aks ettiradi. Ayni paytda asarda ular muayyan lavozim egasi sifatida ko'rinadi. Asar qahramonlarning o'zaro suhbatи asosiga qurilgan. Yusuf Xos Hojib tasvirida Kuntug'di «qilmishlari to'g'ri, fe'l-u raftori rost, tili chin, yetuk, ko'zi va ko'ngli boy, bilimli, zakovatli, hushyor, yomonlarga misli bir olov edi». Oyto'ldi – vazir, ayni paytda Davlat ramzi. Uning Fe'l-atvorida barcha ezgu xislatlar mujassam. Shunga qaramay, davlat alohida e'tiborni ham talab qildi. Yusuf Xos Hojib bunday mulohazalarni o'z qahramonlarini so'zlatish orqali ko'rsatib beradi.

Yusuf Xos Xojibning uqtirishicha, har bir kishi jamiyatga munosib bo'lib kamol topmog'i kerak. Buning uchun, u tug'ilgan kundan boshlab zarur tarbiyani olmog'i lozim. Farzandlar tarbiyasi nihoyatda erta boshlanmog'i shart. Shundagina ularning noo'rin xatti-harakatlariga berilishining oldi olinadi. Yusuf Xos Hojibning mazkur asari insonni har tomonlama kamolga yetkazishning barcha masalalari o'zining badiiy ifodasini topgan yirik ta'limiy-axloqiy dostondir. Olim insonni kamolga yetishi uchun quyidagilarni nazarda

tutadi:

- 1.Aqliy kamolot-bilim va zakovat. O‘quvli bo‘lish.
- 2.Axloqiy kamolot.
- 3.Jismoniy kamolot.²

Yusuf Xos Hojib insonning kamolga yetishining yo‘l-yo‘riqlari, usullari, chora-tadbirlarini yuksak badiiy mahorat bilan yoritib beradi. Shuning uchun ham bu asar o‘zining ilmiy, ma’rifiy, tarbiyaviy ahamiyati bilan beqiyosdir. Shuning uchun ham Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” dostoni turkiy xalqlar adabiyoti tarixida muhim o‘rin egallagan durdona asarlardan biri deb e’tirof etiladi. Yuqorida zikr etilgan buyuk va suyuk allomalarining merosi ilmiy-nazariy jihatdan o‘rganildi. Hayotning mazmuni to‘g‘ri tushuntirish, farzandlarga to‘gri odob-axloqni o‘rgatish, ezgu ishlarga odatlantirish qayd etilgan. Asarda barkamol avlod tarbiyasi va turli yomon illatlardan yiroq tutish yoki xoli qilish bo‘yicha qator tarbiya metodlari, usul va vositalari mavjud. O‘git-nasihat qilish, ibrat-o‘rnak ko‘rsatish, rag‘batlantirish va qoralash kabi metodlarni xalqimiz asrlar davomida qo‘llab kelgan bo‘lib, uning quyidagi ijobiy shakllari: tushuntirish, o‘rgatish, mashq qildirish, yaxshi xislat va ishlarga undash, istak bildirish, maqtash, olqish aytish, duo qilish, alqash, mukofotlash, taqdirlash, ishonch bildirish, oqlash, vasiyat qilish kabi ta’lim metodlari va vositalari yoshlar tarbiyasida muhim o‘rin egallaydi. Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asarida inson kamoloti masalasi markaziy masala bo‘lib hisoblanadi. Mazkur asarda insonning jamiyat va hayotda tutgan o‘rni, burch va vazifalari haqidagi muammolar o‘ziga xos tarzda bayon etiladi. “Qutadg‘u bilig”ning tadqiqotchilaridan biri B.To‘xliyev ta’kidlaganidek, Yusuf Xos Hojib “Komil inson haqida gapirar ekan, kamolotning qator belgilarini ko‘rsatib o‘tadi. Ularning eng asosiysi alohida shaxsning o‘z manfaatlari, shaxsiy istaklari doirasini yorib chiqib, boshqalar g‘ami bilan yashashi, ko‘pchilik manfaati uchun fidoyi bo‘la bilishdir”. Haqiqatdan ham asarning har bir bayti insonni tarbiyalashga, uni komillik sari yetaklashga qaratilgan. Bunda o‘qituvchi

² ”Экономика и социум” №10(77) 2020 www.iupr.ru

mas'uliyatni his qilgan holda, asarni dars jarayonida o'quvchilarga hayot bilan bog'lab tushuntirsa, dars jarayoni, albatta, qizg'in bo'ladi. Zero, adabiyot hayot darsidir. Undagi keltirilganlarni bolalar hayotining har jabhasi bilan bog'lab o'rgatsak, nur ustiga a'lo nur bo'ladi. Tarbiya oiladan boshlanadi, to'g'ri. Lekin u ta'llim dargohida yana ham pishib, sayqallanib boradi. Bola tarbiyasida ta'llim muhiti salmoqli o'rin tutadi. Yusuf Xos Hojibning asari nafaqat o'sha davr, balki bugungi kun uchun ham chuqur ahamiyat kasb etadi. Asardagi pand-nasihatlar yillar davomida o'z qadr-qimmatini, ahamiyatini yo'qotmay kelmoqda. Biz insonlarga bunday didaktik masalalarni o'zida mujassam etgan asarlar doimo kerak. Yusuf Xos Hojib ta'llim va tarbiyaning uzviy bog'liq holda bo'lishini tavsiya etadi, o'g'il bolalarning bir necha san'at turini va hunarlarni tugal o'rganmog'i lozimligini ta'kidlaydi, bu –ularning kelajak hayotlari jamiyat rivoji uchun kerak. Yusuf Xos Hojib aqliy tarbiyaning baland mavqe tutishini eslatadi. Adib tarbiyaning barcha turlari o'zaro bilan uyg'un bo'lishini talab etadi. Shundagina insonning aqlan barkamol, jismonan yetuk, axloqiy, ma'naviy boy bo'lishiga ishonadi. Farzandlarga turli bilim va hunarlar o'rgatish, ularni go'zal axloqli qilib voyaga yetkazish ota – onaning burchidir. Yusuf Xos Hojib tarbiyada kattalar namunasi, ajdodlar tarbiyasi alohida ahamiyatga ega ekanini ta'kidlaydi. Asarda ilgari surilgan axloqiy xislatlar mohiyatining to'laqonli ochib berilishi olimning ta'llim-tarbiya, axloq masalalarini qay darajada chuqur bilganligidan dalolat beradi: insoniylik, rostgo'ylik, to'g'rilik, soflik, mehr-muhabbat, vafo, shafqat, muruvvat, insof,adolat, ishonch, sadoqat, xushmuomalalik, shirinso'zlik, saxovat, mardlik, himmatlilik, tavoze, hurmat va ehtirom, tadbirkorlik. Aql-zakovat, halollik, ezgulik kabi xislatlar ulug'lanadi, ularga yolg'onchilik, noinsoflik, fisqu fasod, bevafolik, mehrsizlik, dag'allik, qo'pollik, baxillik, nomardlik, quvlik, humatsizlik, nodonlik, johillik, haromxo'rlik, ochko'zlik kabi xislatlarni qiyoslab, ezgu xislatlarning yaxshi oqibatlari va salbiy xususiyatlarning yomon oqibatlarini misollar vositasida ishonarli qilib bayon etadi. Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u biling" asarida inson kamoloti masalasi markaziy masala bo'lib hisoblanadi. Mazkur

asarda insonning jamiyat va hayotda tutgan o'rni, burch va vazifalari haqidagi muammolar o'ziga xos tarzda bayon etiladi. Buyuk mutafakkir Yusuf Xos Hojib "Qutadg'u bilig" kitobining an'anaviy boshlamasidan keyinoq insonning haqiqiy baxti bilimda ekanligini bayon etadi. U ilm, zakovatning ahamiyati haqida fikr yuritish bilan birga unga alohida boblar ham bag'ishlangan. Lekin olim faqat ilm-ma'rifikatning ahamiyatini ko'rsatibgina qolmaydi, u bilim va zakovatning amaliyotdagi o'rmini ham yoritadi. Adib bilimli buyuk, uquvni ulug' deb ta'riflaydi. Chunki zakovathli inson ulug' bo'ladi, bilimli kishi buyuk bo'ladi, deb ilmli kishilarni asl toifadagi kishilarga qo'shadi. Olim ezgu ishlarning barchasi ilm tufayli amalga oshirilishini aytadi. O'sha davrdayoq olim "Bilim hatto osmon sari yo'l ochur" deb bashorat qiladi. ³U dunyoda odam paydo bo'libdiki, faqat bilimli kishilargina ezgu ish qilib, adolatli siyosat yurgizib kelgan, ana shu bilim va zakovati tufayli kishilar razolatdan poklanganligini ta'riflaydi. Hatto hukmdorlar ham yurtni, davlatni aql, ilm, zakovat bilan idora etsa, el-yurt farovon bo'ladi, to'q va tinch hayot kechiradi, deydi. U kuch va qurolni aql va bilimdan keyingi ikkinchi o'ringa qo'yadi. Sechu (ya'ni har yerda ma'lum xudo) insonni yaratti, tanladi, unga hunar, bilim va uquv berdi. Asarda ilm, axloq, tarbiya va jismoniy kamolot bir butunlikda ko'riladi. Tarbiyada ota-onasiga, ta'lim muassasalari, ajdodlar merosi va o'qituvchining o'rni alohida ta'kidlanadi. Asardagi nasihatlar yoshlar tarbiyasida, ularni barkamol inson sifatida voyaga yetkazishda muhim vosita hisoblanadi. Muallif bilim va zakovatni har qanday kuchdan ustun qo'yadi va insonni jamiyatga foydali shaxs sifatida tarbiyalashni asosiy vazifa deb biladi.

"Qutadg'u bilig" – nafaqat o'z davri, balki hozirgi zamon uchun ham bebaho axloqiy-ma'rifiy manba hisoblanadi. Asar inson kamoloti, adolatli boshqaruv, axloqiy tarbiya va ilm-fanning ahamiyatini teran ifodalab, yosh avlodni ezgulikka undaydi. Yusuf Xos Hojibning bu asari bugungi kunda ham ta'lim va tarbiya jarayonlarida qo'llanilishi zarur bo'lgan manbalar qatorida turadi.

³.**Yusuf Xos Hojib. Qutadg'u bilig.** – T.: G.,afur G.,ulom nomidagi badiiy adabiyot .Nashriyoti, 1971.

Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. <https://elibrary.tdpu.uz/darsliklar/maktab-darsliklari/11-sinf-darsliklar>.
2. Rahmonov N. O.,zbek adabiyoti tarixi. – T.: “Sano-standart” nashriyoti, 2017.
- 3.”Экономика и социум” №10(77) 2020 www.iupr.ru .
- 4.Yusuf Xos Hojib. Qutadg,,u bilig. – T.: G,,afur G,,ulom nomidagi badiiy adabiyot .Nashriyoti, 1971.
- 5.Yusuf Xos Hojib. Qutadg,,u bilig. – T.: Cho,,lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2007.